

INSON HUQUQLARI MASALASI VA UNGA SHARQONA YONDASHUV

Qandimov Ilyos Qalandar o'g'li

Buxoro viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7337133>

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson huquqlari butun insoniyatning intilishlari, orzu-umidlarini o'ziga jamlagan keng qamrovli tushuncha ekanligi atroflicha yoritib o'tilgan. Maqola davomida inson huquqlari haqidagi sharq mutafakkir olimlarining qarashlari va fikrlari haqida alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, nazariy qarashlar, falsafa, taraqqiyot asosi, davr talabi.

ВОПРОС О ПРАВАХ ЧЕЛОВЕКА И ВОСТОЧНЫЙ ПОДХОД К НЕМУ

Аннотация. В данной статье подробно объясняется, что права человека – это всеобъемлющее понятие, включающее в себя чаяния и надежды всего человечества. В ходе статьи обсуждаются взгляды и мнения восточных мыслителей о правах человека.

Ключевые слова: права человека, теоретические взгляды, философия, основа развития, требование времени.

THE QUESTION OF HUMAN RIGHTS AND THE EASTERN APPROACH TO IT

Abstract. In this article, it is explained in detail that human rights are a comprehensive concept that includes the aspirations and hopes of all mankind. In the course of the article, the views and opinions of Eastern thinkers about human rights are discussed.

Key words: human rights, theoretical views, philosophy, basis of development, demand of the times.

KIRISH

Inson huquqlari muammosi – hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridandir. Inson huquqlari – bu jamiyatning eng oliy qadriyati, himmatidir. Inson huquqlari – bu butun insoniyatning intilishlari, orzu-umidlarini o'ziga jamlagan keng qamrovli tushunchadir. Inson huquqlari – bu hozirgi taraqqiyotning asosi va davr talabidir. Inson huquqlari – bu demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisidir. Inson huquqlari har bir davlatning demokratik taraqqiyoti darajasini ko'rsatuvchi muhim mezondir. Shuning uchun ham inson huquqlari xalqaro huquqda va milliy huquqiy tizimda muhim o'rin tutadi. Insoniyat o'z tarixiy rivojlanishi jarayonida inson huquqlariga oid qonunchilik – bu inson va fuqaro huquqlari hamda erkinliklari haqida qonunlar majmuidir. Bu qonunlar qatoriga inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlar va milliy qonunlar kiradi. Inson huquqlari to'g'risidagi qonunchilik o'z taraqqiyotida uch katta bosqichni bosib o'tgan.

TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI

Birinchi bosqich – 1789-yilgi inson va fuqaro huquqlari fransuz deklaratsiyasidan boshlanib, to birinchi jahon urushiga qadar davom etgan. Bu bosqichda insonning shaxsiy va siyosiy huquqlari to'g'risidagi qonunchilik ustuvor ravishda rivojlangan. Bu davrda qabul qilingan qonunlarda alohida e'tibor quyidagi muammolarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan: shaxs erkinligi va fuqarolar tengligi; shaxs daxlsizligi; xususiy mulk huquqi; saylov huquqi turli seznlr bilan cheklangan bo'lsada.

Ikkinchi bosqichi – XX asrning birinchi yarmini o'z ichiga olgan. Bu bosqichda sotsial yo'nalish demokratiya ta'sirida insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlariga oid qonunchilik tez

rivojlangan. Mehnat qilish huquqi, dam olish huquqi, ijtimoiy yordam olish huquqi to'g'risidagi qonunlar alohida ahamiyat kasb etgan. Fransiya va Shvetsiyadagi sotsial qonunchilik, 1920-yilgi Veymar Konstitutsiyasi, Fransiya va Italiyaning 1946-yilgi Konstitutsiyalari bunga yaqqol misol bo'ladi.

Uchinchi bosqich – XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelib, bu bosqichda inson huquqlarining «yangi avlodi» to'g'risidagi qonunchilik rivojlanadi. Bu huquqlar qatoriga: tinch yashash huquqi; sof va toza atrof-muhitga ega bo'lish huquqi; axborot olish huquqi kabilar kiradi. Bu bosqichda inson huquqlari to'g'risida xalqaro qonunchilik tizimi shakllandi. Dunyodagi har bir davlatda ham inson huquqlariga oid muayyan qonunchilik tizimi shakllangan. Bu qonunchilik negizini, avvalambor, Konstitutsiyalar tashkil etadi. Barcha davlatlar Konstitutsiyalarida inson va fuqaro huquqlari va erkinliklariga maxsus bo'lim, boblar ajratilgan. Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari joriy qonunlarda o'z aksini topgan. Hozirgi kunda davlatlar o'z Konstitutsiyalarida inson huquqlariga oid quyidagi muhim qoidalarni mustahkamlaganlar:

– inson huquqlari va erkinliklarini tan olish va himoya qilish bu davlat majburiyatlaridir;

– inson huquqlari va erkinliklari katalogi xalqaro-huquqiy andozalarga mos kelishi va bu sohada xalqaro huquqning ustuvorligi;

– inson huquqlari va erkinliklari unga tug'ilgandan boshlab taalluqlidir, yangi tabiiy huquq g'oyasini, nazariyasini e'trof etilishi;

– hammaga va har kimga inson huquqlari va erkinliklarining teng va barobar taalluqliligi;

– fuqarolarning kafolatlangan sud himoyasi bilan ta'minlanishi;

– inson huquq va erkinliklarini amalga oshirish boshqa shaxslar huquqlarini buzmasligi zarurligi. Dunyo davlatlarida inson huquqlariga oid qonunchilik tizimi quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Fuqarolarning shaxsiy huquqlariga oid qonunlar.
2. Fuqarolarning siyosiy huquqlariga oid qonunlar.
3. Fuqarolarning iqtisodiy huquqlariga oid qonunlar.
4. Madaniy huquqlarga oid qonunlar.
5. Inson huquqlariga oid xalqaro huquqiy hujjatlar.

TADQIQOT NATIJASI

Inson huquqlari to'g'risidagi ta'limotning rivojida Sharq mutafakkirlarining xizmatlari benihoya kattadir. Al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari o'nlab olimlar, davlat va jamoat arboblari dunyoqarashida, ularning amaliy ishlarida inson huquqlari masalasi alohida o'rin egallaydi. Ular turli muammolar singari inson huquqlari, erkinliklari, qadriyatlarini masalasiga ham befarq qaramaganlar va bu borada o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar. Inson haqida g'amxo'rlik qilish, inson erkinligi, haq-huquqlari to'g'risida qayg'urish, inson sha'nini kamsitadigan urinishlarga yo'l qo'ymaslik g'oyalari shular jumlasidandir. O'rta asrlarda butun dunyoda bo'lgani singari Sharq olamida ham inson huquqlari turli yo'llar bilan toptab kelingan. O'sha davrlarda insonning shaxsiy huquq va erkinliklari singari, uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy huquqlari ham hukmron siyosiy kuchlar tomonidan cheklab qo'yilgan. Bunday holatlarga qarshi noroziliklar shafqatsizlarcha bostirilgan.

Kishilar yashash, mehnat qilish va dam olish kabi oddiy insoniy huquqlardan ham to'la erkinlik asosida foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaganlar.

Insonning sha'ni, qadr-qimmat, erkinliklari huquqiy jihatdan kafolatlanmagan, uning - huquqlari poymol etilishi oddiy bir hol bo'lgan. Aholi keng qatlamlarining nochor hayoti o'z haq-huquqlarini anglab yetish va uni himoya qilish uchun kurash olib borish imkonini bermagan. Tarixning guvohlik berishicha, ayrim mamlakatlar va mintaqalarda olib borilgan jang-u jadallar, bosqinchilik urushlari natijasida fuqarolarning haq-huquqlari vahshiylarcha toptab kelingan. Bunday misollarni O'rta Osiyoda yashagan xalqlar va millatlar hayotidan ham ko'plab keltirish mumkin. Birgina mo'g'illar bosqini davrida O'rta Osiyoda yashagan xalqlarning haq-huquqlari qanchalik toptalganligini oddiy so'z bilan ifodalash qiyin. Masalan, mo'g'illar 1220- yilda Buxoroni bosib olib, 30 mingdan oshiq buxorolikning yostig'ini quritganlar, aholining qolgan qismini qullarga aylantirib, ko'pchiligini o'zlari ishg'ol qilgan boshqa yerlarga haydab ketganlar. Din peshvolari, olim-u fuzalolarni tahqirlaganlar, Buxoro shahriga o't qo'yilgan. Bunday sharoitda inson huquqlari yoki uni himoya qilish to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emasdi. Lekin mavjud siyosiy tuzumlar sharoitida ham somoniylar, temuriylar, boburiylar davrida inson huquqlarini himoya qilish sohasida talaygina tadbirlar amalga oshirilganligini aytish joiz. Masalan, O'rta Osiyoda somoniylar hukmronligi davrida aholining hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik, ilm-fan bilan shug'ullanuvchi qismiga qulay sharoitlar yaratishga harakat qilingan. Savdo-sotiq ishlari avj olib, bu ish bilan shug'ullanuvchilar davlat tomonidan muhofaza etilgan. Savdo karvonlarini qo'riqlab boruvchi soqchilar tayinlangan. Davlatni boshqarishda markaz bilan joylar o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatilgan. Bu va shunga o'xshash tadbirlar inson huquqlarini himoya qilishda o'sha davrning barcha hukmdorlari uchun ibrat namunasi bo'lgan. Inson huquqlarini himoya qilishda va ularga berilgan huquqlaridan foydalanishda Sohibqiron Amir Temur amalga oshirgan ishlar diqqatga sazovordir. Sohibqironning butun hayoti va kurashi insonni qadrlash, uning yaxshi hayot kechirishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib berish bilan chambarchas bog'liqdir. Amir Temur o'zining «Temur tuzuklari»da mamlakat fuqarolarining haq-huquqlari va ularni himoya qilishning zarurligini qayta-qayta ta'kidlagan. Insonning mehnat qilish huquqi asarda quyidagicha ta'riflab beriladi: «Agar kasb-u hunar va ma'rifat ahillaridan bo'lsa, bundaylarga saltanat korxonalaridan yumush berilsin. Bulardan boshqa, bilagida kuchi bor faqir-miskinlar esa o'z ahvoli va kasbi-korig'a qarab ish tutsinlar» («Temur tuzuklari». –T.; G'.G'ulom nomidagi nashriyot, 1991, 67-bet). Amir Temur inson huquqlarini himoya qilishda eng ko'p kuchg'ayrat sarflagan yetuk siymolardan biri edi. U hukmronlik qilgan davrda inson huquqlarini kamsitishga qaratilgan har qanday urinishlarga chek qo'yilgan va bunday urinishlarning rahnamolari hamda ishtirokchilari qattiq jazolangan. «Yana buyurdimki, — deb yozadi Sohibqiron, — agar (har yer va elning) amaldorlari va kalontarlari oddiy fuqarolarga jabr-zulm qilsa va shu orqali bechoralarga zarar yetkazgan bo'lsa (bunday vaqtlarda) yetkazilgan zararni kalontarlardan undirib, jabr ko'rganlarga bersin, toki ular yana o'z hollariga kelsinlar» («Temur tuzuklari», 99-bet).

MUHOKAMA

Har qanday jabr-zulm inson huquqlarini poymol qiladi. Jumladan, mehnat qilishga majbur etish, qiynoqqa solish, mol-mulkiga, shaxsiy hayotiga zarar yetkazish va shu kabilar. Ulug' Sohibqiron inson sha'niga nomunosib bo'lgan ana shunday xatti-harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmaslikning mohiyatini to'g'ri tushungan va shuning uchun ham mamlakat fuqarolarining huquqlarini himoya qilish yo'lida qat'iy kurash olib borgan. Amir Temurning inson huquqlari

to'g'risidagi g'oyalari uning davlatni idora qilishdagi o'zi asoslagan qoidalarda juda aniq bayon etilgan. Bu qoidalar qonun kuchiga ega bo'lib, ularda inson huquqlari masalasiga keng o'rin berilgan. Sohibqironning adolat bilan ish ko'rishi, gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat qilishi, raiyatning ahvolidan doimo xabardor bo'lib turishi, davlat ishlarini saltanat qonunlariga asoslangan holda boshqarishi va boshqa shular singari xayrli ishlari uning inson huquqlarini himoya qilishga qanchalik katta ahamiyat berganligidan darakdir. Amir Temur insonning qadr-qimmati va huquqlarini qadrlagan va himoya qilgan ulug' zotlardan biridir. U markazlashgan qudratli mamlakatni boshqarar ekan, o'z amir-u beklaridan, davlat xizmatchilaridan fuqarolarning holidan xabar olib turishni, ularning shaxsiy va ijtimoiy huquqlarini himoya qilishni qattiq talab qilgan. Sohibqiron o'z hukmdorligining barcha davrlarida adolat va insof bilan ish ko'rgan, gunohkorga ham, begunohga ham adolat, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqargan, o'zining xayr-ehson ishlari bilan odamlar ko'nglidan joy olgan. Zolimlardan mazlumlar haqqini undirib bergan. Uning yozishicha, zolimlar yetkazgan ashyoviy va jismoniy zararlar isbotlanganidan keyin ularni shariatga muvofiq odamlar o'rtasida muhokama qilgan. Natijada aybsiz kishiga jabr-zulm o'tkazilmagan. Buyuk allomalar Forobiy, Ibn Sino, Beruniylar ham inson huquqlari masalasini chetlab o'tmaganlar. Somoniylar davrida amalda bo'lgan tartib-qoidalar, o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy tuzumi bu mutafakkirlarning dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ular o'z asarlarida bu davrga baho berish bilan birga qimmatli g'oyalarni ilgari surganlar, inson huquqlari va ularni himoya qilish to'g'risida ham o'z fikrlarini yozib qoldirganlar. Forobiy o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida odamlarning ma'lum bir kasb-hunar bilan shug'ullanishi, ular har qanday ta'qib va cheklashlardan xoli bo'lishi, erkin va ozod yashashi haqida yozadi. Forobiyning «Fozil odamlar shahri» jamoasi haqidagi ta'limoti, uning komil inson haqidagi fikrlari bilan bog'lanib ketgan.

XULOSA

Komil inson jamiyatning teng huquqli, erkin fuqarosi bo'lishi lozimligi, jamoa uning huquqlarini hurmat qilishi, kishilarning tinch va osoyishta hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni ta'minlab berishi haqidagi fikrlar asarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Garchi, bu masala xayoliy tarzda tasvirlangan bo'lsa-da, biroq unda insonga g'amxo'rlik qilish, uning haq-huquqlarini himoya qilish zarurligi g'oyalari ilgari surilganligining o'zi muhim ahamiyatga egadir. Forobiy singari Ibn Sino ham inson va uning jamiyatda egallashi lozim bo'lgan o'rniga katta e'tibor bilan qaragan. Allomaning inson va uning huquqlari to'g'risidagi qarashlari amaliy falsafaga doir ta'limotida asoslab berilgan.

REFERENCES

1. Islom Karimov. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. –T., 1993.
2. U.T. Tojixonov. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi amalda. –T., 1996.
3. R.Kamolov. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. –T., «Adolat», 1998.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish. –T., «O'zbekiston» 2001.
5. YUNESKO Xalqaro Me'yoriy hujjatlari (to'plam). L.Saidova «Adolat», 2004.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Axborotnomasi. –T., 1992.
7. Inson huquqlari to'g'risida xalqaro bitim. –T., 1992.